**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI**

**TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI**

**60230900 – “Folklorshunoslik va shevashunoslik” bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha**

**2021/2022-o‘quv yilida qabul qilingan 1-kurs talabalari uchun tasdiqlangan o‘quv rejaga muvofiq ishlab chiqilgan**

# FANLAR KATALOGI

| T/r | Fanning kodi | Fanning nomi | Fanning qisqa tavsifi | Kredit miqdori | Semestr | Professor-o‘qituvchilar: F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | **Majburiy fanlar** | | | |
| **1** | 302 Fal 1 2 | Falsafa | Dunyoqarash bilan bog‘liq falsafiy bilimlarga ega bo‘lish, mustaqil tahlil qila olish, kasbiy faoliyatida ularni hisobga olish; komil inson obrazini shakllantirishda milliy g‘oya va milliy mafkuraning rolini bilish. | 2 | 1 | J.Norqo‘ziyev O`qituvchi |
| **2** | 302 O‘zEYT 1 2 | O‘zbekistonning eng yangi tarixi | Vatan tarixini bilish, milliy va umuminsoniy qadriyatlar bo‘yicha o‘z nuqtai nazarini bayon etish hamda ilmiy asoslay olish, milliy g‘oya asosida faol hayotiy o‘rinni egallash. | 2 | 1 | Sh.Muhamedov O`qituvchi |
| **3** | 302 O‘zFolk 1 6 | O‘zbek folklori | Milliy qadriyatlar xazinasida xalq og‘zaki ijodning o‘rnini, uning muhim xususiyatlari, folklor asarlarining ijro an’analaridan voqif bo‘lish; janrlararo munosabat mezonlarini farqlash. | 6 | 1 | Sh.Turdimov f.f.d. prof. |
| **4** | 302 TilNaz 1 5 | Tilshunoslikka kirish | Tilshunoslik tarixi, nazariya va metodlari, sohadagi turli maktablar, olimlarning konsepsiya va ilmiy yondashuvlarini bilish; o‘zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslikka oid bilimlarni egallash, til fanlarining dolzarb masalalarini ilg‘ay olish, ilmiy faoliyatda qo‘llay bilish. | 5 | 1 | D.Muhammadiyeva PhD |
| **5** | 302 XorijT 1 10 | Xorijiy tillar | Xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilish. | 10 | 1,2,3,4,5,6 | N.Yusupova O‘qituvchi |
| **6** | 302 AdabNaz 1 | Adabiyotshunoslik | Adabiyotning o‘ziga xos xususiyatlari, badiiy obraz, | 5 | 2 | A.Ulug‘ov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 5 | asoslari | badiiy tasvir vositalari, adabiy tur va janrlarni; adabiyotshunoslik ilmi va adabiy jarayondagi nazariy masalalarni;<br>badiiy asarning shakl va mazmuni, she'riy tizimga oid nazariyalarni puxta o'zlashtirish. | | | f.f.n. prof. |
| **7** | 302 O'zDial 1 6 | O'zbek dialektologiyasi | O'zbek shevashunosligi tushunchalari, o'zbek tili qipchoq, qarluq, o'g'uz lahjalarining fonetik, leksik va grammatik, transkripsiya xususiyatlarini, shevalarni tasniflash tamoyillari hamda usullarini bilish. | 6 | 2 | T.Enazarov<br>f.f.d. dots. |
| **8** | 302 HO'AT 1,2 8 | Hozirgi o'zbek adabiy tili | Hozirgi o'zbek adabiy tili sathlari va ularning birliklarini farqlash, hozirgi o'zbek adabiy tilidagi lisoniy birliklar, munosabatlar hamda ular turlarining ilmiy asoslarini bilish. | 8 | 2,3,4 | N.Ahmedova<br>f.f.n. dots.<br>M.Hakimova<br>DcS dots |
| **9** | 302 FolkKir 1 6 | Folklorshunoslikka kirish | Folklorshunoslikning nazariy masalalari bo'yicha chuqurroq o'rganish, shuningdek, o'zbek folklorshunosligida yetakchi bo'lgan ilmiy yo'nalishlarni dunyo folklorshunosligi bilan qiyosiy o'rganishdan iborat. | 6 | 2 | J.Eshonqulov<br>f.f.d. prof. |
| **10** | 302 JahFolAd 2 6 | Jahon folklori va adabiyoti | Jahon adabiyoti tarixining nazariy muammolari, namoyandalari, taraqqiyot tamoyillari, dunyo badiiy tafakkuri durdonalari va ularning tadrijiy rivojidan xabardor bo'lish. | 6 | 3 | U.Jo'raqulov<br>f.f.d. prof. |
| **11** | 302 O'zAdTar 2,3 16 | O'zbek adabiyoti tarixi | O'zbek adabiyoti tarixining shakllanish va taraqqiyot bosqichlari, unga yondashuvlar, adabiyot tarixini o'rganishning metodologik asoslari va uni davrlashtirish tamoyillarini bilish; milliy uyg'onish adabiyotida qadimchilar va jadid adabiyoti vakillarining mushtarak hamda farqli xususiyatlari anglash. | 16 | 3,4,5 | K.Mullaxo'jayeva<br>f.f.n. dots.<br>N.Jabborov<br>f.f.d. prof. |
| **12** | 302 O'zTilT 2,3 9 | O'zbek tili tarixi | O'zbek tili tarixi, uni davrlashtirish, qadimgi turkiy tilning fonetik, leksik, morfologik va sintaktik xususiyatlari, qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha yaratilgan badiiy, tarixiy, ilmiy, leksikografik asarlar tiliga xos xususiyatlar, o'zbek adabiy tilining taraqqiyot bosqichlari, adabiy til rivojiga ijtimoiy-tarixiy voqealarning ta'siri masalasi, adabiy til uslublari xususidagi bilimlarni o'zlashtirish. | 9 | 4,5 | B.Abdushukurov<br>f.f.d. prof. |
| **13** | 302 O'ShMLT 2 | O'zbek shevalari | Sheva vakillari nutqidan yozib olingan materiallarni | 6 | 4 | T.Enazarov |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 6 | matnlarining lingvistik tahlili | leksik, morfologik tahlil qilish orqali o‘zbek shevalari haqidagi nazariy qarashlarga ega bo‘lish, o‘ziga xos jihatlarini farqlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lish. | | | f.f.d. dots |
| **14** | 302 DTIY 3 4 | Davlat tilida ish yuritish | Hujjatchilik tarixi, xususan, sharq hujjatchiligi, hujjat turlari va ish yuritish asoslari, hujjat tili va uslublari haqidagi tasavvurga ega bo‘lish; davlat tilida yoziladigan har qanday huquqiy-meyoriy hujjatlarni shakllantirish va tahrir qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish. | 4 | 5 | T.Tog‘ayev f.f.n dots. |
| **15** | 302 O‘TO‘M 3 4 | O‘zbek tilini o‘qitish metodikasi | Ona tilidan zamonaviy dasturlar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmuni, ta’limga doir meyoriy hujjatlar bilish; mashg‘ulotlarda mavzuni o‘quvchilar yosh xususiyatidan kelib chiqib o‘tish usullari borasida zamonaviy bilimlar, pedagogik mahorat va axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish. | 4 | 5 | M.Umurzaqova PhD dots. |
| **16** | 302 O‘AO‘M 3 4 | O‘zbek adabiyotini o‘qitish metodikasi | O‘zbek adabiyot fanidan zamonaviy dasturlar va darsdan tashqari mashg‘ulotlar mazmuni, adabiy ta’limga doir meyoriy hujjatlarni bilish, o‘qitishning samaradorligi va natijaviyligini ta’minlash maqsadida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalarini tizimli, mantiqiy ketma-ketlikda qo‘llash qobiliyatini tarkib toptirishi. | 4 | 6 | T.Matyoqubova DcS dots. |
| **17** | 302 TarDial 3 6 | Tarixiy dialektologiya | XIX asr boshlarigacha bo‘lgan tarixiy asarlar tilidagi dialektaltal so‘zlar, ularning tasnifi, o‘sha davr tili leksikasidagi o‘ziga xosliklar, fonetik, morfologik xususiyatlar haqida tasavvur beradi. | 6 | 6 | S.Ashirboyev f.f.d. prof. |
| **18** | 302 Umpsix 3 4 | Umumiy psixologiya | Psixologiyaning mohiyati, ruhiy jarayonlar, psixik rivojlanish va uning o‘ziga xos xususiyatlari, yosh davrlari tasnifi, psixik taraqqiyotning turli bosqichlarida psixofiziologik holatlarning o‘rni haqidagi bilimlar bilan qurollanish. | 4 | 6 | M.Djumabayeva p.f.n. dots. |
| **19** | 303 YOA 3 4 | Yangi o‘zbek adabiyoti | 20-asrning 20-yillaridan to mustaqillik davrigacha yashab ijod etgan adiblar hayoti va ijodi, yaratilgan badiiy asarlar tahlili, davr adabiy jarayoni mohiyati yoritib beriladi. | 4 | 6 | U.Rasulova DcS dots. |
| **20** | 302 UmPed 4 4 | Umumiy pedagogika | Zamonaviy pedagogika fanining nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimilar bilan qurollantirish, ta’lim-tarbiya jarayonini oqilona tashkil etish, milliy va jahon pedagogika fanlari taraqqiyoti bilan | 4 | 7 | I.Uzaqov p.f.n. dots |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | tanishtirish hamda pedagogik merosdan samarali foydalanish, ta'lim amaliyotida yuksak pedagogik mahorat va o'qituvchi nutqi madaniyatini namoyon eta olish malakalarini shakllantirishi. | | | |
| **21** | 302 DialLek 4 5 | Folklor dialektologiyasi | Folklor namunalari matnlarida mavjud shevaga doir leksemalar tahlili amalga oshiriladi. | 5 | 7 | Z.Xolmanova f.f.d. prof. |
| **22** | 302 O'zMif 3 6 | O'zbek mifologiyasi | Turkiy miflarning paydo bo'lishi tarxi, rivojlanish jarayoni, mifologik obrazlar tahlili, bugungi kun xalq og'zaki ijodidagi ko'rinishlari tahlillar asosida ko'rsatiladi. | 6 | 7 | N.Joraqo'ziyev PhD dots. |
| | | | Tanlov fanlari | | | |
| **23** | 302 JisTar 1 5 | Jismoniy tarbiya va sport | Sog'lom turmush tarzini shakllantirish, jismonan baquvvat bo'lish uchun sport bilan shug'ullanib borish zarurati, o'zini jismonan takomillashtirish to'g'risida tasavvurga ega bo'lish. | 5 | 1 | Sh.Xolova O`qituvchi |
| **24** | 302 YFvaG 1 5 | Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi | Sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish muhimligi borasida tassavvur hamda e'tiqodga, o'zini jismoniy chiniqtirish o'quv va ko'nikmalariga ega bo'lish. | 5 | 1 | Sh.Xolova O`qituvchi |
| **25** | 302 IMTA 1 4 | Intelektual va ma'naviy tarbiya asoslari | Talabalarga zamonaviy axborot texnologiyalari, elektron axborot tizimlari, qidiruv tizimlari, kompyuter grafikasi, ma'lumotlar bazasini yaratish va ular ustida ishlay olish imkoniyatlari haqida batafsil ma'lumotlar beriladi. | 4 | 1 | D.Yusupova O`qituvchi |
| **26** | 302 FUM 1 4 | Filologlar uchun matematika | Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi bilan uzviylik hamda uzluksizlikni inobatga olgan holda bilishning matematik usullari, murakkab iqtisodiy tizimlar va jarayonlarni modellashtirish tamoyillari, informatika hamda axborot to'plash, ularni qayta ishlash va uzatish usullarining jamiyatdagi o'rni va ahamiyati haqida tasavvurlarni hosil qilish. | 4 | 1 | S.Mavlonov O`qituvchi |
| **27** | 302 XalqLir 1 4 | Xalq lirikasi | O'zbek xalq lirikasi, janrlar tarkibi va tasnifi, marosim lirikasi, shomon qo'shiqlari janrlari, xalq qo'shiqlarida ramzlar, xalq qo'shiqlarining to'planishi, tasnif qilinishi va nashrlari, bu borada olib borilgan tadqiqotlar mazmuni haqida ma'lumot berish. | 4 | 2 | A.Tilovov f.f.n. dots |
| **28** | 302 BSDM 1 4 | Baxshichilik san'ati va dostonchilik maktablari | Xalq og'zaki badiiy ijodining yuksak professional san'at turi doston va dostonchilik bo'lib, uning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar faoliyati bilan uzviy bog'langanligi, baxshilar va dostonchilik maktablari, doston kuylash | 4 | 2 | Sh.Turdimov f.f.d. prof |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | tartibi, ustoz va shogird munosabati kabi masalalar mazkur fan doirasida o‘rganiladi. Bugungi folklor janrlari genezisi va badiiyatida dostonlarning o‘rni va xizmatini aniqlaydi. Zamonaviy san’at va adabiyotda epik an’analarning yangi talqinlari haqida ma’lumot berish. | | | |
| **29** | 302 XalqD 2 4 | Xalq dostonlari | Xalq dostonlari, ularning paydo bo‘lishi va bugungi kungacha yetib kelish tarixi, folklorshunoslikda dostonlarning o‘rganilishi, dostonlardagi turkumlilik, xalq dostonlarining sinkretik janr sifatidagi xususiyatlarini ko‘rsatish. | 4 | 3 | Sh.Turdimov f.f.d. prof |
| **30** | 302 BMLT 2 4 | Badiiy matnning lingvistik tahlili | O‘zbek tilshunosligida matn, xususan, badiiy matnning semantik-sintaktik va lingvistik mexanizmlarini, o‘zbek tilining mohiyati va uning yetakchi vazifalarining namoyon bo‘lish qonuniyatlarini, umuman, o‘zbek tilining badiiy imkoniyatlarini yanada chuqurroq ochishga imkoni beradi. | 4 | 3 | M.Hakimova DcS dots |
| **31** | 302 O‘SHO‘M 2 4 | O‘zbek shevalarini o‘rganish metodikasi | O‘zbek shevalarini o‘rganish, tadqiq va tahlil qilish malakasi shakllantiriladi. | 4 | 4 | M.Umurzaqova PhD dots |
| **32** | 302 ANXOI 3 4 | Alisher Navoiy va xalq og‘zaki ijodi | Alisher Navoiyning tafakkur dahosi, o‘zbek tili va adabiyoti, millat madaniyati rivojiga qo‘shgan hissasi, ilmiy va ijodiy faoliyati, shoir asarlarining o‘rganilish tarixi, mazmun-mohiyati, o‘zbek va jahon adabiyotining keyingi rivojiga ko‘rsatgan ta’siri bilan bog‘liq masalalarni bilish ko‘nikmalarini egallash. | 4 | 5 | A.Tilovov f.f.n. dots |
| **33** | 302 SHT 2 6 | Sharq tillari | Sharq tillari, xususan arab yoki fors tili talabalarga o‘rgatilish asnosida folklor matnlari, sharq tillarida yaratilgan namunalarni tadqiq qilish, xalq kitoblarida sharq tillariga oid so‘zlar taxini o‘rganishga imkon yaratadi. | 4 | 3 | N.Rashidova O`qituvchi |
| **34** | 302 MahTop 3 4 | Mahalliy toponimiya | Respublikamiz hududidagi toponimlarni o‘rganish, tahlil qilish, tarixi va paydo bo‘lish jarayonini yoritish, hozirgi kunga qadar qo‘llanilish sabablarini ko‘rsatish imkonini beradi. | 4 | 5 | T.Enazarov f.f.d. dots |
| **35** | 302 HAJF 3 4 | Hozirgi adabiy jarayon va folklor | Adabiy jarayonda bo‘layotgan o‘zgarish, yangilanishlar haqida talabaga bilim va ko‘nikmalar beriladi. Folklorizm, stilizatsiya jarayonlari, folklorning yozma adabiyotga ta’siri masalalari o‘rganiladi. | 4 | 6 | U.Rasulova DcS dots |

| | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **36** | 302 MDO‘AF 3 4 | Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti va folklor | Istiqlol davri adabiy jarayonida bo‘layotgan o‘zgarish, yangilanishlar, adabiyot tarixi, folklorizm, stilizatsiya jarayonlari, folklorning yozma adabiyotga ta’siri masalalari o‘rganiladi. | 4 | 6 | U.Rasulova DcS dots |
| **37** | 302 FolkM 3 4 | Folklor matnshunosligi | Adabiy manbashunoslik va matnshunoslik ilmi tarixi, qo‘lyozma hamda toshbosma kitoblarning tarkibiy tuzilishi, xususiyatlari, shuningdek, fan istilohlaridan xabardor bo‘lish;<br>kartotekadan foydalanish va katolog tuzish qoidalari, ilmiy tavsif tuzilishini bilishi. | 4 | 5 | Q.Pardayev DcS dots. |
| **38** | 302 O‘NMUA 3 4 | O‘zbek nutqi madaniyati va uslubiyati asoslari | Mazkur fanni o‘qitish talabalarga o‘zbek nutq madaniyati va uslubiyati asoslarini o‘rgatish, nutq madaniyati va uslubiyatning ilmiy va amaliy jihatlari, nutqning lisoniy va nolisoniy, uslubiy meyor, qoidalari bilan tanishtirish; tinglovchilarning madaniy nutq, uslubiyatga oid tasavvur, bilim, ko‘nikma va malakalarini oshirishni o‘z ichiga oladi. | 4 | 6 | T.Tog‘ayev f.f.n. dots. |
| **39** | 302 MarF 4 4 | Marosim folklori | Marosim folklori tarkibiy janrlari, xususiyatlari, genezisi, mif bilan munosabati, marosimlarnig o‘tkazilish tartibi va mohiyati yoritilib, ularning o‘zbek folkloridagi o‘rni ko‘rsatib beriladi | 4 | 7 | I.Sayitqulov PhD |
| **40** | 302 BFolk 4 4 | Bolalar folklori | Bolalar folklori janrlari, badiiyati, mohiyati, ijrosi haqidagi nazariy qarashlar namunalar tahlili orqari ko‘rsatib o‘tiladi. | 4 | 7 | A.Tilovov f.f.n. dots. |
| **41** | 302 O‘SHTQA 3 4 | O‘zbek shevalarini tasnif qilish asoslari | Hududimizda mavjud shevalarni tadqiq qilish, ularni turli xususiyatlar jihatidan tasnif qilish, shu paytgacha dialektolog olimlar tomonidan amalga oshirilgan tasniflarni o‘rganish kabi masalalar o‘rganiladi. | 4 | 6 | S.Ashirboyev f.f.d. prof |
| **42** | 302 ITA 3 4 | Ilmiy tadqiqot asoslari | Fan doirasidagi asosiy masalalar ilmiy ish olib borish yuzasidan boshlang‘ich bilimlarni shakllantirish, lingvistik terminlarni o‘zlashtirish, adabiyotlarni o‘rganish va ulardan foydalanish, havola berish tartibi, nazariy masalalarni tahlil qilinishi va yoritilishini bilishi muhim ahamiyat kasb etadi. | 4 | 5 | Z.Xolmanova f.f.d. prof. |

**Fakultet dekani** **B.Abdushukurov**